



**TIQXMMI
MTU**
"TOSHKENT IRRIGATSIIYA VA QISHLOQ
XO'JALIGINI MEKANIZATSIYALASH
MUHANDISLARI INSTITUTI"
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI



FAN:

**ATROF-MUHITGA BO'LADIGAN TA'SIRNI
BAHOLASH (AMBTB)**

MAVZU

11

**AMBTB jarayonining ekologik
monitoring va ekologik boshqaruv
dasturini yaratish.**



**Razzakov Ruslan
Ishqulovich**

**"Ekologiya va suv resurslarini
boshqarish" kafedrasini katta o'qituvchisi**




Reja:

1. **Ekologik monitoring** tushunchasi, uning turlari
2. O`zbekiston respublikasida **ekologik monitoringni tashkil qilinishi**
3. AMBTB jarayonida **ekologik monitoringni urni**

Ekologik monitoringni qonuniy asoslari

- ✓ O`zbekiston Respublikasida Vazirlar Mahkamasining №273 (23.08.2016) qarori bilan tasdiqlangan «2016-2020 yillarda O`zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitni monitoring qilish dasturi»
- ✓ O`zRning «Tabiatni muhofaza qilish to`grisidagi qonuni» (1992)

Ekologik monitoringda ishtirok etadigan tashkilotlar



Ekologik boshqaruv rejasi

Ekologik boshqaruv rejasi (EBR) – bu salbiy ekologik va ijtimoiy ta’sirlarni oldini olish, oqibatlarini bartaraf etish va mumkin bo’lgan darajagacha kamaytirish uchun loyihani bajarish bosqichida zarur bo’lgan, tashkiliy, **texnik va monitoring tadbirlarining to’plamidir** (Jahon bankining tarifi).

EBRga qo`yiladigan talablar

- AMBTB hujjatlari tarkibidagi EBRga qo`yiladigan talablar orasida xalqaro moliyalashtirish tashkilotlar talablari eng ilg`or sanaladi.
- Jahon bankining, Osiyo taraqqiyot bankining, Yevropa taraqqiyot va rivojlanish banklarning yetakchi mutaxassis ekologlari EBRga katta ahamiyat berishib, **EBRni AMBTB jarayonining asosiy yakuniy hujjati** etib qabul qilishni tavsiya qiladilar.

EBRga qo`yiladigan talablar

- Atrof-muhitga bo`ladigan ta'sirlarni baholashda qo`llaniladigan monitoringga ayrim hollarda **“AMBTB monitoringi”** deb ham aytiladi, lekin xalqaro amaliyotda keng qo`laniladigan **“loyihadan keyingi tahlil”** yoki **“loyihadan keyingi monitoring”** atamalari odatda to`g`riroq sanaladi

“AMBTB monitoringi” vazifalari:

1. Loyiha qarorlarini, shu jumladan atrof-muhitni muhofaza qilish **tadbirlarini amalga oshirilishini**, tasdiqlangan **rejaga** (jumladan **EBRga**) **muvofiqligini aniqlash**;
2. Mo`ljallanayotgan faoliyatning amaldagi **ta'sirlarini baholash** va ularni AMBTB jarayonida bashorat qilingan ta'sirlar bilan **taqqoslash**.

AMBTB loyihasi hujjatlariga kiritiladigan ekologik boshqaruv rejalarining tarkibi:

1. Bashorat qilinayotgan **potentsial ahamiyatli** barcha ta'sirlarni qisqacha bayoni.
2. Bashorat qilinayotgan har bir ta'sirni kamaytirish bo'yicha **rejalashtirilayotgan** har bir tadbir haqida to'liq axborot.
3. Monitoring o'tkazish va hisobot berish tartibining bayoni.

AMBTB loyihasi hujjatlariga kiritiladigan ekologik boshqaruv rejalarining tarkibi:

4. Tashkiliy imkoniyatlarni rivojlantirish va o`qitish tadbirlarining bayoni va monitoring olib borish hamda kamaytirish tadbirlari ma`suliyatlarini taqsimlanishining bayoni.
5. Bajarish muddatlari va narxlarni baholash.
6. EBRni loyihaning boshqa jihatlar bilan bog`langanligi.

AMBTB loyihasi hujjatlarga kiritiladigan ekologik boshqaruv rejalarining tarkibi:

- ✓ Loyihadan keyingi tahlil EBRga bog`liq bo`lmagan faoliyat sifatida talqin qilinib, davlat organlari, jamoatchilik, ilmiy tashkilotlar, NDT va AMBTB ning boshqa manfaatdor tomonlari, buyurtmachi tomonidan o`tkaziladigan turli tadbirlar, yani loyiha va atrof-muhit ko`rsatkichlari ustidan o`tkaziladigan davriy va epizodik kuzatuvlar, inspeksiya va auditlarni o`z ichiga oladi.

Loyihadan keyingi tahlil xujjatlar:

- 1. Amalga oshirish monitoringi** - loyihani amalga oshirish ustidan nazorat va tekshiruvni (jumladan, davlat nazorati) nazarda tutadi;
- 2. Atrof-muhitga ta'sirlar monitoringi** (avval qabul qilingan qarorlarga tuzatish kiritish uchun ma'lumotlarni taqdim qiladi, o`xshash loyihalarni atrof-muhitga bo`ladigan ta'sirlarni baholash uchun axborot bazasini shakllantirishga hissa qo`shadi).

Loyihadan keyingi tahlilni tashkil qiluvchilar sifatida e'tirof etiladigan hujjatlar:

- loyihalarni atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash auditori (ekologik auditning bu turi, jumladan, faoliyat natijasida atrof-muhitga amalda bo'layotgan ta'sirlarni AMBTB jarayonida bashorat qilingan ta'sirlarga mos kelishini tahlil qilishni nazarda tutadi).

Ekologik boshqaruv rejasini tuzilishi

(misol)

Loyiha doirasida faoliyat	Potentsial ekologik ta'sir	Ta'sirni kamaytirish buyicha takliflar	Ma'sullar	Tekshirish muddati
Loyiha boshlanishidan oldin				
Ishchilar posyolkasi ni tashkil qilish	Yer resurlarini qattiq chiqindilar bilan ifloslanishi	1. Chiqindilarni yig`ish joylarini tashkil qilish 2. Posyolka hududidan chiqindilarni o`z vaqtida olib chiqish	Qurilish tashkilotining bosh injeneri	Har ikki haftada

Адабиётлар:

1. Atrof-muhitga bo`ladigan ta`sirini baholash fanidan o`quv qo`llanma. Bob-9
2. O`zRning Vazirlar Mahkamasining № 273 (23.08.2016) sonli qarori bilan tasdiqlangan «2016-2020 yillarda O`zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitni monitoring qilish dasturi»



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ
XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
MUHANDISLARI INSTITUTI



E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!